

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.T.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

XALIQULOV MUZAFFAR ABDURAZZOQ O‘G‘LI

**UNIVERSAL ILDIZMEVA KOVLAGICHNI ISHLAB CHIQISH VA
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Xaliqulov Muzaffar Abdurazzoq o‘g‘li

Universal ildizmeva kovlagichni ishlab chiqish va parametrlarini asoslash..... 3

Халикулов Музаффар Абдураззок угли

Разработка и обоснование параметров универсального корнеклубнекопателя..... 19

Khalikulov Muzaffar Abdurazzok ugli

Development and justification of the parameters of the universal root harvester.. 35

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 39

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.T.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

XALIQULOV MUZAFFAR ABDURAZZOQ O‘G‘LI

**UNIVERSAL ILDIZMEVA KOVLAGICHNI ISHLAB CHIQISH VA
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
immissiyasida B2024.3.PhD/T4943 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning
veb sahifasi www.qxmiti.uz va "Ziyonet" Axborot ta'lif portalida (www.zyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Norchayev Davron Rustamovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nuriyev Karim Katibovich
texnika fanlari doktori, professor

Qo'ychiyev Odil Rahimovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika
universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi
ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.T.13.01 raqamli ilmiy kengashning
2026-yil "22" 01 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 110800, Toshkent
viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99855) 903-14-18,
e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

Dissertatsiya bilan Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs
markazida tanishish mumkin (512 raqami bilan ro'yxatga olingan).
Manzil: 110800, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi,
41-uy. Tel.: (+99855) 903-14-18, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "7" 01 kuni tarqatildi.
(2026-yil "7" 01 dagi № 69 raqamli reestr bayonnomasi).


A. To'xtaqo'ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, texnika fanlari doktori, professor


B.P. Artikbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, texnika fanlari falsafa
doktori, katta ilmiy xodim


R.R. Xudaykuliev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika
fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati. Jahon amaliyotida ildizmevalarni yetishtirish va uni kovlab olish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. “Hozirgi kunda jahon miqyosida 30-35 mln hektar maydonda” yetishtiriladigan ildizmevallarning asosiy qismi kichik fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini inobatga oladigan bo‘lsak¹, ildizmevalarni yuqori samaradorlikda kovlab olish uchun energiya-resurstejamkor ishchi organlariga ega ixcham kovlagichlarni ishlab chiqish dolzarb va zarur masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda turli ildizmevalarning hosilini kam energiya sarflab kovlab oladigan universal va resurstejamkor ish organlariga ega bo‘lgan kovlagichlarni yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda ildizmevalarni kovlab olish jarayonining samaradorligini oshirish, bunda energiya va resurslarni tejash bilan bir qatorda turli xil ildizmevalarni tuproqdan to‘liq va shikastlamasdan ajratib olishni ta’minlaydigan universal ildizmeva kovlagichlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada respublikamizda yetishtirilayotgan turli xil ildizmevalarni kovlab olish jarayonini mexanizatsiyalashtirish va qo‘l mehnatiga chek qo‘yish maqsadida energiya resurstejamkorlikni ta’minlaydigan universal va ixcham kovlagichlarni yaratishga doir tadqiqotlarni olib borish xalq xo‘jaligi ahamiyatiga ega. Ushbu yo‘nalishda, jumladan turli ildizmevalarni kovlab olishda energiya va resusrstejakmkorlikni ta’minlashning ilmiy-texnikaviy asoslarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, qishloq xo‘jalik ekinlarini ilg‘or texnologiyalar asosida yetishtirish va yuqori unumli qishloq xo‘jalik mashinalarini ishlab chiqish va qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida, jumladan, “...qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, yer va suv resurslaridan oqilonqa foydalanish, fermer xo‘jaliklarida mehnat unumdarligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash”² vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda jumladan, ildizmevalardan yuqori hosil olish, uni yig‘ishtirishda qo‘l mehnatiga barham berish, uning tannarxini yuqori samarali yig‘ishtirish mashinalari va qurollaridan foydalanish hisobiga kamaytirish zarur.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini

¹ <https://www.fao.org>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni va 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410-son “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jalik texnikalari bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 11-maydagi PQ-4709-son “Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-aprelda tasdiqlangan “Qishloq xo‘jaligining ustuvor yo‘nalishlari, global, mintaqaviy va hududiy muammolarining ilmiy yechimlarini tadqiq qilish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan dastur” doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Ildizmeva kovlagichlarni ishlab chiqish, ularning parametrlari va texnologik ish jarayonlarini asoslash bo‘yicha bir qator xorij olimlari, jumladan N.F.Didenko, G.Litak, V.Bulgakov, Y.Chida, S.R.Boven, V.M.Martinov, O.Adrahem, E.S.Reyngart, A.Baz, M.M.Meylaxs, G.D.Petrov, A.A.Popov, N.I.Chipurko, V.G.Kushnir, R.B.Xevko, A.A.Protasov, I.N.Shilo, V.I.Zuyev, A.A.Myakishev va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan mashina va qurollar qishloq xo‘jaligida qo‘llanilmoqda.

Ushbu yo‘nalishda Respublikamizda N.G‘.Baybaboyev, F.M.Mamatov, R.I.Baymetov, A.To‘xtaqa‘ziyev, R.Norchayev, D.R.Norchayev, A.A.Karimov, R.X.Chorshanbiyev, Sh.X.Akbarov, B.B.Jo‘rayev, Sh.S.Qo‘ziyev va boshqa olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ammo yuqorida ta‘kidlangan tadqiqotlarda respublikamiz tuproq-iqlim sharoitida kam energiya sarflab turli ildizmevalarni kovlab oladigan universal ildizmeva kovlagichni ishlab chiqish va uning parametrlarini asoslash bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yetarlicha o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutining 2018-2019 yillarga mo‘ljallangan rejasiga kiritilgan YQX-Ftex-2018-51, “Kichik fermer xo‘jaliklari uchun turli ildizmevalarni kovlaydigan universal va ixcham texnika vositasini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turli ildizmevalarni kovlab olishni ta‘minlaydigan universal ildizmeva kovlagichni ishlab chiqish va maqbul parametrlarini asoslash orqali yonilg‘i sarfi va boshqa harajatlarni kamaytirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ildizmevalarni kovlaydigan texnika vositalariga doir ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil etish;

universal ildizmeva kovlagichga qo‘yiladigan agrotexnik talablarni ishlab chiqish;

ildizmevalar va ular pushtasi tuprog‘ining fizik-mexanik xossalari, shakli va o‘lchamlarini o‘rganish;

turli ildizmevalarni kovlab olish imkonini beradigan ish organlari bilan jihozlangan universal ildizmeva kovlagichni konstruktiv va texnologik sxemasini ishlab chiqish;

turli ildizmevalarni kovlab olish imkonini beradigan ish organlari bilan jihozlangan universal ildizmeva kovlagichning parametrlarini asoslash bo‘yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish;

turli ildizmevalarni kovlab olish imkonini beradigan ish organlari bilan jihozlangan universal ildizmeva kovlagichning texnik-iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida universal ildizmeva kovlagichning turli uzunlikka rostlanadigan seksiyali lemexi va uyumlagichlar, ildizmevalar va uning pushtasi tuprog‘ining fizik-mexanik xossalari olingan.

Tadqiqotning predmeti turli ildizmevalarni kovlab olish imkonini beradigan seksiyali lemexlar va uyumlagichlar bilan jihozlangan universal ildizmeva kovlagichning ildizmevalarni kovlash va tuproqdan ajratish jarayonlarining sifat va energetik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish qonuniyatlari, uning ishchi organlarining ratsional parametrlarini aniqlash imkonini beradigan analitik bog‘lanishlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ish jarayonida nazariy tadqiqotlar nazariy mexanika va oliv matematikaning asosiy qoidalari qo‘llanib, eksperimental tadqiqotlar esa dala sharoitida ishlab chiqilgan tajribaviy qurilmalar hamda eksperimentlarni matematik rejlashtirish va tenzometriya usullari hamda mavjud me’yoriy hujjatlarda (ГОСТ 20915-11, O‘zDSt 3193.2017, O‘zDSt 3355.2018, РД Уз 63.03-98) keltirilgan usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

universal ildizmeva kovlagichning konstruktsiyasi kam energiya sarflash hamda ildizmevalarni minimal shikastlanishi hisobga olinib ishlab chiqilgan;

universal ildizmeva kovlagichning uzunligi va gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagi rostlanadigan seksiyali lemexlarining parametrlari turli ildizmevalarni kovlab olish shartidan keltirib chiqarilgan analitik ifodalar asosida aniqlangan;

universal ildizmeva kovlagichning seksiyali lemexi ustunining tuproqqa kirish qismining uzunligi va uning o‘tkirlanish burchagi hamda unga o‘rnatilgan uyumlagichlarning parametrlari ildizmevalar pushtasini kam energiya sarflab qirqib berishi va ularni kerakli darajada uyumlab ketilish jarayonlarini ifodalovchi analitik ifodalar asosida aniqlangan;

universal ildizmeva kovlagichning ildizmevani kovlash chuqurligi, seksiyali lemexni gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagi, seksiyali lemexining uzunligi, uyumlagichning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi ularning agrotexnik va energetik ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholovchi regressiya tenglamalarini birgalikda yechish orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalarining turli ildizmevalarni agrotexnika talablariga mos ravishda kovlab olishni ta'minlaydigan uzunligi va gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagi rostlanadigan seksiyali lemexlari hamda uyumlagichlar bilan jihozlangan universal ildizmeva kovlagichning konstruktsiyasi yaratilgan;

turli ildizmevalarni kovlab olish imkonini beradigan uzunligi va gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagi rostlanadigan seksiyali lemexlari hamda uyumlagichlar bilan jihozlangan universal ildizmeva kovlagichni qo'llash natijasida yonilg'i, energiya hamda mehnat sarfini kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usullar va o'lhash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, universal ildizmeva kovlagichning parametrlarini nazariy jihatdan asoslashda oliv matematika, nazariy mexanikaning asosiy qoida va usullariga amal qilinganligi, tajribalar natijalariga matematik statistika usullari bilan ishlov berilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro mosligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida universal ildizmeva kovlagich ishlab chiqilganligi, uning dala sinovlarining natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli xil ildizmevalarni kovlaydigan universal ildizmeva kovlagichni seksiyali lemexi va uyumlagichi parametrlarining uning ish sifati ko'rsatkichlariga ta'sirini ifodalovchi analitik ifodalar olinishi hamda nazariy natijalardan shunga o'xshash boshqa qurilmalar parametrlarini asoslashda foydalanish imkoniyati mavjudligidan iborat.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan turli ildizmevalarni kovlab olish imkonini beradigan uzunligi va gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagi rostlanadigan seksiyali lemexlari hamda uyumlagichlar bilan jihozlangan universal ildizmeva kovlagich qo'llanilganida turli ildizmevalarni kovlab olish to'liqligi va ish unumini oshishidan, qo'l mehnati sarfi hamda ekspluatatsion xarajatlarni kamayishidan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Universal ildizmeva kovlagichni ishlab chiqish va parametrlarini asoslash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

universal ildizmeva kovlagichning texnik hujjatlari (dastlabki talablar, texnik topshiriq va chizmalar) ishlab chiqilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 21-dekabrdagi 05/01-05/02-05/04-03-431-son ma'lumotnomasi). Natijada, bir nechta turdag'i ildiz meva hosilini kam shikastlagan holda yig'ishtirib oladigan universal ildizmeva kovlagichning konstruksiyasini ishlab chiqish imkonini yaratilgan;

universal ildizmeva kovlagichning tajriba nusxasi Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti tajriba xo'jaligida, Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanidagi "QOVUNCHI ADXAMJON FAYZ ZIYOSI" va "MUHTORXO'JA NABIRALARI" va Sirdaryo viloyati Oqoltin tumanidagi "IBROHIMJON XOTIRA BOG'I" fermer xo'jaliklariga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 21-dekabrdagi 05/01-05/02-05/04-03-431-son ma'lumotnomasi). Natijada universal ildizmeva kovlagich qo'llanilganda ildizmevani kovlab olish to'liqligini 8,5-10,2 foizga oshirish, ildizmevaning shikastlanish darjasini 1,5-2,0 foizga va mehnat sarfi

22-25 foizga, qo‘l mehnatiga nisbatan esa 50-55 foizga kamaytirish imkoniyati yaratilgan;

universal ildizmeva kovlagichning sanoat nusxalarini ishlab chiqish va tayyorlash uchun uning loyiha konstrukturlik hujjatlari (dastlabki talablar, texnik topshiriq va chizmalar) “BMKB-Agromash” AJ da loyihalash jarayoniga joriy etilgan (“BMKB-Agromash” AJ ning 2024-yil 20-avgustdaggi №01-73 son ma’lumotnomasi). Natijada, universal ildizmeva kovlagichning sanoat nusxalarini ishlab chiqarish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o’tkazilgan va ma’qullangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, umumiy xulosalar, foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsyaning hajmi 116 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy-tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi hamda ilmiy-tadqiqot ishining dissertatsiya amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqot ishining ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e’lon qilingan ishlari va dissertatsyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsyaning “**Masalaning qo‘yilishi. Tadqiqot ishining maqsad va vazifalari**” deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekistonda ildizmevalarni yetishtirish va yig‘ishtirish texnologiyasi to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar, ildizmeva yig‘ishtirishda qo‘llaniladigan mashinalar turlari hamda ularning ishchi organlari, O‘zbekistonda va xorijda ildizmeva kovlagichlar bo‘yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil etilgan va ular asosida tadqiqotning vazifalari shakllantirilgan.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda va xorijiy mamlakatlarda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida bir nechta turdagи ildizmevalarni kovlab olish imkoniyatiga ega bo‘lgan universal ildizmeva kovlagich ishlab chiqish va parametrlarini asoslash bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmagan.

Dissertatsyaning “**Ildizmevalar va uning pushtasi tuprog‘ining fizik-mexanik xossalari**” deb nomlangan ikkinchi bobida sabzi, piyoz, sarimsoqpiyoz,

sholg‘om, osh lavlagi, turp kabi ildizmevalar va ular pushtalarining shakli va o‘lchamlari, tuproq namligi va qattiqligi hamda pushtadagi ildizmevalarning fraksion tarkibini o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar keltirilgan. Quyida sabzi va piyoz yetishtirilgan maydonlarda o‘tkazilgan tajriba natijalari berilgan.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, sabzi pushtasining pastki asosini eni $B_p=70$ cm, yuqori asosini eni $b_y=43$ cm, balandligi $h_p=21$ cm, uyasining eni $b_{o\cdot r}=45$ cm, namligi $W=12,6$ foiz, qattiqligi 2,25 MPa, zichligi $\rho=1281$ kg/m³, ildizmevaning pastki joylashish chuqurligi $h_j=18,5$ cm hamda piyoz pushtasining pastki asosini eni $B_p=57$ cm, yuqori asosining eni $b_y=39$ cm, balandligi $h_p=9,5$ cm, uyasining eni $b_{o\cdot r}=46,9$ cm, namligi $W=12$ foiz, qattiqligi 2,13 MPa, zichligi $\rho=1210$ kg/m³, ildizmevaning pastki joylashish chuqurligi $h_j=9,5$ cm ekanligi ma’lum bo‘ldi. 1 m² yuzadagi ildiz mevalarning soni o‘rganilganda sabzi o‘rtacha 44 donani, piyoz o‘rtacha 100 donani tashkil etdi.

Dissertatsiyaning “Universal ildizmeva kovlagichning energiya-resurstejamkor kovlash ishchi organi parametrlarini nazariy asoslash” deb nomlangan uchinchi bobida universal ildizmeva kovlagichning seksiyali lemexi, uyumlagichi va lemex ustunini o‘tkirlanish burchagini asoslashga hamda ularni tortishga qarshiligini hisoblashga doir nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

O‘tkazilgan ilmiy-texnik adabiyotlar tahlili hamda olib borilgan izlanishlar asosida universal ildizmeva kovlagich tayanch g‘ildiraklar 1, g‘ildirak ustunlari 2, osgich 3, asosiy lemexni tutib turuvchi ustunlar 4, lemex ustuning o‘tkirlangan qismi 5, asosiy lemexning gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagini rostlovchi planka 6, uyumlagich 7, asosiy lemex 8, seksiyali lemexlar 9 dan iborat etib ishlab chiqildi (1-rasm).

Universal ildizmeva kovlagichning ish jarayoni quyidagicha kechadi: ish boshlashdan avval ildizmeva turiga muvofiq ravishda kovlagichning seksiyali lemexining uzunligi, kovlash chuqurligi va gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagi sozlanadi. Idliz-meva kovlagichning seksiyali lemexi ma’lum burchak ostida pushtaga botgani hisobiga ildizmeva hamda u joylashgan tuproq qatlami lemex ustiga ko’tariladi va uning yuzasi bo‘ylab erkin sirpanadi. Seksiyali lemexning yuqori qismidan pastki qismiga tushgan tuproq qatlami singani hamda uvalanganligi uchun kovlab olinayotgan ildizmeva tuproq qatlamidan ma’lum miqdorda ajraladi. Bu esa ildizmevani kovlab olishni osonlashtiradi. Seksiyali lemex yuzasidan sirpanib o‘tgan ildizmeva va tuproq uyumlagich orqali qisman uyumlanadi hamda kovlagich keyingi qatordan qaytib kelganda ildizmevalarni kovlagichning g‘ildiraklari bosib ketish ehtimolining oldi olinadi.


Quyidagilar universal ildizmeva kovlagichning asosiy parametrlari hisoblanadi (1-rasm): seksiyali lemexning eni B_l , m, uning uzunligi L_l , m; lemex tumshug‘ining ochilish burchagi γ , °; lemexni gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagi α , °; ustunning o‘tkirlanish burchagi $2\gamma_u$, °; ustunning o‘tkirlangan qismining balandligi h_{uq} , m; ustunning uzunligi L_{us} , m; uyumlagichning eni b_u , m; uyumlagichning balandligi h_u , m; uyumlagichning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi α_u , °; uyumlagichning uzunligi L_u , m.

Har bir seksiyali lemexning enini ildizmevalarni eng ko‘p ekilish sxemasidan kelib chiqib, seksiyali lemexlarning ildizmeva pushtasini to‘liq qamrash kengligi ularning enidan kichik yoki ularga teng bo‘lishi lozimligi shartidan aniqlaymiz,

ya'ni

$$B_l \geq \frac{B_{um} - 2d_k}{n}, \quad (1)$$

bunda B_{um} – seksiyali lemexlarning umumiyligi; d_k – ildizmevaning eng kichik diametri; n – seksiyali lemexlar soni.



a) – yon tomondan ko‘rinishi; b) – yuqori tomondan ko‘rinishi.

1-rasm. Universal ildizmeva kovlagichning asosiy parametrlari

(1) ifodaga $B_{um}=56$ cm va ildizmevaning eng kichik diametri $d_k=2$ cm hamda $n=3$ qiymatlarni qo‘yib, B_l ning qiymati 17,3 cm ga teng yoki undan katta bo‘lishi lozimligi aniqlandi.

Olib borilgan adabiyotlar tahliliga ko‘ra, lemex tumshug‘ining ochilish burchagini o‘rtacha qiymatini 90° deb qabul qilib olishimiz mumkin.

Lemex tumshug‘ining ochilish burchagi 90° ekanligini hisobga olib, lemex tumshuq qismini teng yonli to‘g‘ri burchakli uchburchak deb qaragan holda, lemexning uzunligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi

$$L_l = \frac{h_{o\cdot rt}}{\sin \alpha}, \quad (2)$$

bunda $h_{o\cdot rt}$ – ildizmevalar pushtasining o‘rtacha balandligi.

Biz taklif etayotgan seksiyali lemexning ildizmeva turiga qarab pushtaga nisbatan balandligini rostlash hamda lemex uzunligini o‘zgartirish imkoniyatlari mavjudligini hisobga olgan holda II-bobda keltirilgan ildizmevalar pushtasining balandliklaridan kelib chiqib aniqlash mumkin. Bunda sholq‘om ildizmevasi pushtasining balandligi $h_{sh}=9$ cm eng kichik, sabzida esa $h_s=20$ cm eng katta balandliklarni (2) ifodaga qo‘yib, ularning uzunligi qanday oraliqlarda bo‘lishligini aniqlash mumkin. (2) ifodaga $\alpha=30^\circ$ va $h_{sh}=9$ cm, $h_s=20$ cm ma’lum bo‘lgan qiymatlarni qo‘yib, $L_l=18-40$ cm oraliqda bo‘lishi lozimligi aniqlaymiz.

Universal ildizmeva kovlagichning seksiyali lemexining tortishga qarshiligidini aniqlashda lemexlarni ikki yonli pona deb qabul qilindi va tortishga

umumiylar qarshiligidan quyidagicha hisoblandi.

$$\begin{aligned}
R = & 2[\sigma]\Delta(B_{um} - 2d_k) + \\
& + 2[\tau_k] \times \left\{ \left[\left(3B_l + 2d_k + \frac{B_p - 3B_l - 2d_k}{2(ctg\psi_{yo} + ctg\varphi_p)} ctg\psi_{yo} \right) \times \left(\frac{B_p - 3B_l - 2d_k}{2(ctg\psi_{yo} + ctg\varphi_p)} \right) \right] + \right. \\
& + 2 \left[\left(\frac{3B_l + 2d_k + b_y}{2} + \frac{B_p - 3B_l - 2d_k}{2(ctg\psi_{yo} + ctg\varphi_p)} ctg\psi_{yo} \right) \times \left(h_s - \frac{B_p - 3B_l - 2d_k}{2(ctg\psi_{yo} + ctg\varphi_p)} \right) \right] \times \\
& \quad \times \frac{\left(\sin \frac{1}{2}(\alpha + \varphi_1 + \varphi_2) + f \cos \frac{1}{2}(\alpha - \varphi_1 - \varphi_2) \cos \alpha \right)}{\sin \psi} + \\
& + 2 \left((3B_l + 2d_k) \left(L_l - \frac{3B_l + 2d_k}{\sin \gamma} \right) h \rho g \operatorname{tg}(\alpha + \varphi_1) \left(1 + \frac{W}{100} \right) \right) + \\
& + 2\rho \times \left\{ \left[\left(3B_l + 2d_k + \frac{B_p - 3B_l - 2d_k}{2(ctg\psi_{yo} + ctg\varphi_p)} ctg\psi_{yo} \right) \times \left(\frac{B_p - 3B_l - 2d_k}{2(ctg\psi_{yo} + ctg\varphi_p)} \right) \right] + \right. \\
& + \left[\left(\frac{B_l + b_y}{2} + \frac{B_p - 3B_l - 2d_k}{2(ctg\psi_{yo} + ctg\varphi_p)} ctg\psi_{yo} \right) \left(h_s - \frac{B_p - 3B_l - 2d_k}{2(ctg\psi_{yo} + ctg\varphi_p)} \right) \right] \times \frac{1}{\sin \psi} \\
& \quad \times V^2 \frac{\sin \alpha \sin(\alpha + \varphi_1)}{\cos \varphi_1 \cos^2 \frac{1}{2}(\alpha + \varphi_1 + \varphi_2)} \left(1 + \frac{W}{100} \right). \tag{3}
\end{aligned}$$

bunda Δ – lemex tig‘ining qalinligi; $[\sigma]$ – tuproqning gorizontal yo‘nalishda ezilishga qarshiligi; $[\tau_k]$ – parchalanish tekisligi bo‘yicha hosil bo‘ladigan urinma kuchlanishning chegaraviy qiymati; φ_1, φ_2 – tuproqning tashqi va ichki ishqalanish koeffitsientlari; h – tuproqning ish organi sirti bo‘ylab ko‘tarilish balandligi; ψ_{yo} – tuproqning yon tomonga parchalanish burchagi; φ_p – pushta yonbag‘rining og‘ish burchagi; W – tuproq namligi.

$L_l=0,18-0,40$ m, $\Delta=0,0005$ m, $B_l=0,17$ m, $[\sigma]=1,44 \cdot 10^6$ Pa, $[\tau_k]=2 \cdot 10^4$ Pa, $\varphi_1=30^\circ$, $\varphi_2=40^\circ$, $h=0,19$ m, $\psi_{yo}=50^\circ$, $\varphi_p=42^\circ$, $d_k=0,02$ m, $B_p=0,7$ m, $b_y=0,43$ m, $\rho=1100$ kg/m³, $W=15\%$, $f=0,58$ qabul qilib, (3) ifoda bo‘yicha o‘tkazilgan hisoblar 1,0-1,4 m/s tezlik oralig‘ida ildizmeva kovlagich kovlash ish organining tortishga qarshiligi 1,03-1,34 kN ni tashkil etishini ko‘rsatdi.

Lemex ustunining o‘tkirlanish burchagini yarmi uning oldiga tuproq yopishib va uyulib qolmaslik shartidan topamiz.

$$2\gamma_u = \frac{\pi}{2} - \varphi_{1u}, \tag{4}$$

bunda φ_{lu} – ishqalanish burchagi, $^{\circ}$.

Bu olingan ifodaga φ_{lu} ni ma'lum bo'lgan qiymatlarini ($25\text{-}35^{\circ}$) qo'yamiz va $2\gamma_u = 54\text{-}66^{\circ}$ oralig'ida bo'lishi kerakligini topamiz.

Ustunning o'tkirlangan qismining balandligi sekssiyali lemexining tuproq va ildizmevalar bilan ta'sirlashish nuqtasining oxirida (tuproq va ildizmeva aralashmasi lemexning eng tepa qismiga chiqqanda), ya'ni oxirgi nuqtasiga yetganda tuproq qatlaming lemex ustidagi balandligidan katta yoki teng bo'lish shartidan aniqlanadi.

$$h_{uq} \geq L_l \sin \alpha + h. \quad (5)$$

(5) ifodaga lemex uzunligi L_l ning eng maksimal qiymatini hamda $\alpha=30^{\circ}$, $h=19$ cm qiymatlarni qo'yib, ustunning o'tkirlangan qismini balandligi 39 cm ga teng yoki undan katta bo'lishi lozimligi aniqlandi.

Ustunning umumiy balandligi esa uning o'tkirlangan qismining balandligi h_{uq} , lemexlar tagiga o'rnatilgan taglik asos bilan ustunni biriktirib turadigan yuzaning balandligi σ_u va poyaning o'rtacha balandliklariga h_{po} bog'liq ravishda quyidagi shart orqali aniqlanadi.

$$L_{us} \geq h_{uq} + \sigma_u + h_{po} + h_{rq}, \quad (6)$$

bunda h_{rq} – ustun qotiriladigan qurilma ramasining qalinligi.

(6) ifodaga $h_{uq}=39$ cm, $h_{po}=22$ cm, $h_{rq}=8$ cm va $\sigma_u=3$ cm qiymatlarni qo'ysak, ustunning umumiy uzunligi 72 cm ga teng yoki undan katta bo'lishi lozimligi aniqlandi.

Ildizmeva kovlagichdan tushayotgan tuproq massasining dala yuzasidagi eni 80 cm dan kichik bo'lishi va kovlagich enining qiymatini ($B_k=140$ cm) hisobga olib, uyumlagichning enini quyidagi ifoda orqali aniqlaymiz:

$$b_u = \frac{B_k - B_{or}}{2}, \quad (7)$$

bunda B_{or} – uyumlagichlarning pastki uchlari orasidagi masofa, cm.

(7) ifodaga $B_k=140$ cm, $B_{or}=80$ cm qiymatlarini qo'yib, b_u ning qiymati 30 cm bo'lishi lozimligi aniqlandi.

Ildizmeva harakatlanayotganda uyumlagich yuzasi bo'ylab erkin sirpanishi lozim. Mazkur shartni hisobga olgan holda ildizmevaning uyumlagich bo'ylab sirpanishini ta'minlashdagi burchak quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\alpha_u = \frac{\pi}{4} - \frac{\varphi_c}{2}, \quad (8)$$

bunda φ_c – ildizmevaning ishqalanish burchagi, $^{\circ}$.

Ildizmevaning uyumlagich yuzasi bo'ylab ishqalanish burchagini $\varphi_c=18\text{-}20^{\circ}$ oralig'ida qabul qilsak, α_u ning qiymati mos ravishda $35\text{-}36^{\circ}$ ni tashkil etadi.

Uyumlagichning uzunligini quyidagi ifoda orqali aniqlaymiz:

$$L_u = b_u / \sin \alpha_u. \quad (9)$$

(9) ifodaga uyumlagichlarning ko'ndalang eni b_u ni va uyumlagichning kovlagich harakat yo'nalishiga nisbatan o'matilish burchagi α_u ning yuqorida

aniqlangan qiymatlarini qo‘yib, uyumlagichning umumiyligi $L_u=51-52$ cm bo‘lishi lozimligi aniqlandi.

Ildizmeva kovlagich uyumlagichining balandligini uning oldiga uyulgan tuproq uning tepa qirrasidan oshib o‘tib ketmasligi shartidan quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlaymiz:

$$h_u \geq \sqrt{\left(\frac{B_k - B_{or}}{2}\right) \left[\operatorname{ctg} \alpha_u + \operatorname{tg} (\alpha_u + \varphi_c) \right] (h_{uq} - L_t \sin \alpha) \sin \alpha_u \operatorname{tg} \mu}, \quad (10)$$


bunda μ – uyumlagichning oldida uyulgan tuproqning gorizontga nisbatan qiyalik burchagi, °.

(10) ifodaga $B_k = 140$ cm, $B_{or} = 80$ cm, $\alpha_u = 35^\circ$, $\varphi_c = 20^\circ$, $h_{uq} = 39$ cm, $L_t = 40$ cm va $\mu = 30^\circ$ qiymatlarni qo‘yib, uyumlagichning balandligi kamida $h_u = 22,9$ cm bo‘lishi lozimligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning “**Eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish usullari va natijalarini**” deb nomlangan to‘rtinch bobida universal ildizmeva kovlagichning talab darajasidagi ish sifatini ta’minlovchi parametrlarini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan bir va ko‘p omilli eksperimental tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Universal ildizmeva kovlagich bo‘yicha dala tajribalari sabzi va piyoz yetishtirilgan maydonlarda o‘tkazildi. Sabzi ildizmevalar ichida eng chuqur joylashgani uchun, piyoz esa boshqa turdag ildizmevalar (sholg‘om, turp, osh lavlagi, sarimsoqpiyoz) o‘lchamlari va pushtada joylashish chuqurligi hamda o‘lchamlari yaqin bo‘lgani uchun tanlab olindi. Quyida sabzi dalasida o‘tkazilgan tajribalar natijalari berilgan.

Eksperimental tadqiqotlarda universal ildizmeva kovlagich lemexining kovlash chuqurligini, tuproqqa kirish burchagini, uzunligini hamda uyumlagichning uzunligini, balandligini, harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatalish burchagini ildizmevalarning shikastlanishi, kovlab olish to‘liqligi, tortishga qarshiligi ta’siri o‘rganildi. Ularning natijalari 2-4-rasmlarda keltirilgan.




2-rasm. Universal ildizmeva kovlagich lemexining kovlash chuqurligi (K_{ch}) va agregat tezligi (V_{agr}) ni ildizmevalarning shikastlanishi (S_{sh}), kovlab olish to‘liqligi (K_t) hamda kovlagichning tortishga qarshiligi (R_s) ga ta’siri

Keltiriligan grafiklar tahlili shuni ko’rsatadi (2-rasm), ildizmevalarning eng kam shikastlanishi kovlash chuqurligi 20-24 cm bo‘lganda kuzatildi, ya’ni 3 foizdan kam. Ildizmevalarning kovlab olish to‘liqligining eng yuqori ko‘rsatkichlari kovlash


chuqurligi 20-22 cm bo‘lganda 97 foizdan yuqori bo‘lishi kuzatildi. Kovlash chuqurligi oshishi bilan tortishga nisbatan qarshilik kuchi ham oshib bordi, buni kovlash chuqurligi oshib borgan sari universal ildizmeva kovlagichning lemexlari old qismida paydo bo‘ladigan tuproq qatlami hajmi oshib borishi orqali izohlash mumkin. Tajriba natijalaridan kovlash chuqurligining eng maqbul chuqurligi 22-24 cm bo‘lishi lozim degan xulosaga kelish mumkin.

Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki (3-rasm), ildizmevalarning eng kam shikastlanishi lemexni tuproqqa kirish burchagi $25-30^\circ$ bo‘lganda har ikkala harakat tezligida ham 2 foizdan kam bo‘lishi kuzatildi. Harakat tezligi kichik bo‘lsa kovlab olish to‘liqligi yuqori bo‘ladi. Kovlagichning tortishga qarshiligi lemexning tuproqqa kirish burchagi oshirilib borilganda agregatning ikkala harakat tezliklarida ham oshib bordi. Ushbu holat lemexning tuproqqa kirish burchagi qancha kichik bo‘lsa, shuncha tuproqni kesish qobiliyati yaxshi bo‘lishi va lemexning tuproqqa kirish burchagi ortgani sari lemexning old qismida tuproq hajmining oshishi bilan izohlanadi. Tajriba natijalaridan lemexni tuproqqa kirish burchagining eng maqbul burchagi 25° dan 30° gacha bo‘ladi degan xulosaga kelish mumkin.



3-rasm. Universal ildizmeva kovlagich lemexining tuproqqa kirish burchagi (α) va aggregat tezligi (V_{agr}) ni ildizmevalarning shikastlanishi (S_{sh}), kovlab olish to‘liqligi (K_t) hamda kovlagichning tortishga qarshiligi (R_s) ga ta’siri

4-rasmdan ko‘rinib turibdiki, lemex uzunligi ortishi bilan ildizmevaning shikastlanishi har ikkala harakat tezligida ham avval kamayishi va keyinchalik oshishi kuzatildi. Bu holat lemex uzunligi juda qisqa bo‘lganda lemex ildizmevani



4-rasm. Universal ildizmeva kovlagich lemexining uzunligi (L_I) va aggregat tezligi (V_{agr}) ni ildizmevalarning shikastlanishi (S_{sh}), kovlab olish to‘liqligi (K_t) hamda kovlagichning tortishga qarshiligi (R_s) ga ta’siri

kesib ketishi hamda lemexning uzunligi judayam uzun bo'lganda esa ildizmeva lemex yuzasi bilan tasirlashishi hisobiga shikastlanishning ortishi bilan izohlanadi. Lemexning uzunligi qisqaroq bo'lganda idizmeva palaxsaning yuza qismigacha ko'tarilib chiqao may qayta ko'milib qolishi hisobiga kovlab olish to'liqligi pastroq bo'ladi. Undan tashqari, tajriba natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, kichik harakat tezlida kovlab olish to'liqligi yuqoriroq bo'ldi. Lemexni uzunligi oshirilib borilganda agregatning ikkala harakat tezliklarida kovlagichning tortishga qarshiligi ham oshib bordi. Tajriba natijalaridan lemex uzunligining eng maqbul qiymati 35-40 cm bo'lishi lozim degan xulosaga kelish mumkin.

Universal ildizmeva kovlagich uyumlagichining ildizmevalarning shikastlanishi hamda kovlagichning tortishga qarshiliga ta'sirini o'rganish bo'yicha tajribalar o'tkazildi va uyumlagichning uzunligi 50-55 cm; uyumlagichning balandligi 25-30 cm; harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi 35-40° oralig'ida bo'lishi lozimligi aniqlandi.

Universal ildizmeva kovlagich parametrlarining maqbul qiymatlarini aniqlash maqsadida Xartli-4 rejasi bo'yicha ko'p omilli tajribalar o'tkazildi.

Bunda ildizmevani kovlash chuqurligi (X_1), seksiyali lemexni gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagi (X_2), seksiyali lemexning uzunligi (X_3), uyumlagichning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi (X_4) uning sifat va energetik ish ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar sifatida tanlab olindi.

Ko'p omilli eksperimentlarni o'tkazishda baholash mezonlari sifatida kovlab olish to'liqligi, ildizmevaning shikastlanishi va ildizmeva kovlagichning tortishga qarshiligi olindi.

Tajriba natijalariga ishlov berilib, baholash mezonlarini adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

ildizmevaning shikastlanishi bo'yicha, (%):

$$Y_1 = 2,822 - 0,082X_1 + 0,255X_1^2 + 0,187X_2^2 + 0,084X_2X_3 - \\ - 0,228X_2X_4 + 0,205X_3^2; \quad (11)$$

kovlab olish to'liqligi bo'yicha, (%):

$$Y_2 = 97,177 + 0,29X_1 + 1,275X_2 + 0,575X_3 - 1,56X_1^2 - 0,45X_1X_2 - \\ - 1,085X_2^2 - 0,65X_3X_4 - 0,685X_4^2; \quad (12)$$

universal ildiz meva kovlagichning tortishga qarshiligi bo'yicha, (kN):

$$Y_3 = 1,37 - 0,042X_1 - 0,05X_3 - 0,056X_4 + 0,061X_1^2 - \\ - 0,043X_1X_2 - 0,075X_2X_3 + 0,046X_3X_4. \quad (13)$$

Ushbu regressiya tenglamalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, barcha omillar baholash mezonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Olingen (11)-(13) regressiya tenglamalari Y_1 mezon 3 foizdan kam, Y_2 mezon 97 foizdan ko'p va Y_3 mezon minimal qiymatga ega bo'lishligi shartlaridan birgalikda yechilib, 1,0-1,4 m/s ish tezliklarda kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi ish sifatini ta'minlashi uchun ildizmeva kovlagich lemexining kovlash chuqurligi 22 cm, gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagi 25°, lemexining uzunligi 35 cm va uyumlagichning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi 35° bo'lishi lozimligi aniqlandi.

Dissertatsyaning "**Universal ildizmeva kovlagich sinovlarining natijalari va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari**" deb nomlangan beshinchi bobida universal

ildizmeva kovlagich tajriba nusxasining texnik tavsifi, dala sinovlari natijalari va uning iqtisodiy samaradorligi keltirilgan.

Sinovlarda universal ildizmeva kovlagich belgilangan texnologik jarayonni ishonchli va sifatli bajardi, uning ish ko'rsatkichlari agrotexnika talablariga to'liq mos bo'ldi.

O'tkazilgan hisoblar shuni ko'rsatadiki, ildizmevalarni hosilini kovlab olishda universal ildizmeva kovlagich qo'llanilganda 1 hektar maydonga sarflanadigan to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar 21 foizga, mehnat sarfi esa 24,4 foizga kamayadi. Bunda bitta kovlagichga yillik iqtisodiy samara 10 223 213,74 UZS ni tashkil etadi.

XULOSA

"Universal ildizmeva kovlagichni ishlab chiqish va parametrlarini asoslash" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Hozirgi kunda respublikamizda ildizmevalarni yetishtirish va yig'ishtirishda qo'llanilayotgan texnikalar asosan xorijdan keltirilgan bo'lib, ular har bir ildizmeva turi uchun alohida ishlab chiqilgan mashinalar hisoblanadi va ularning aksariyati katta yer maydonlariga mo'ljallanganligi sababli gabarit o'lchamlari, narxi, yonilg'i sarfi yuqoriligi hisobiga kichik dehqon xo'jaliklari uchun ixcham, bir nechta turdag'i ildiz mevalarni kovlash imkonini beradigan universal ildizmeva kovlagichni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2. Taklif etilayotgan universal ildizmeva kovlagichning afzalligi shundan iboratki, ildizmevaning turiga mos ravishda u lemexining uzunligi va gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagini o'zgartirish imkoniga ega, lemexlarni tutib turuvchi ustunlarning o'tkirlanish burchagi va parametrлari unga begona o'tlarning tiqilmaslik shartlaridan aniqlanganligi hamda unga o'rnatilgan uyumlagich orqali ildizmevalarni kerakli o'lchamda uyumlanishi ta'minlanadi.

3. Barcha turdag'i ildizmevalarni kovlab olish uchun seksiyali lemex uzunligini 18-40 cm oralig'ida o'zgartirish imkoniga ega bo'lishi, unga begona o'tlarning tiqilmasligi uchun uning tumshug'ini ochilish burchagi o'rtacha 90° hamda ildizmevalarni kam energiya hisobiga kovlab olinishini ta'minlash uchun eni 17,3 cm bo'lishi lozimligi aniqlandi.

4. Asosiy lemexni tutib turuvchi ustunining oldida tuproq hamda ildiz meva poyasi yopishib va uyulib qolmasligi uchun ustun $54-66^{\circ}$ burchak oralig'ida o'tkirlanishi, ustunning o'tkirlangan qismini balandligi 39 cm bo'lishi lozim.

5. Kovlab olinayotgan ildizmevalarni minimal shikastlanishini ta'minlash uchun ularni kerakli o'lchamda uyumlab ketilishini ta'minlaydigan uyumlagichning agregatni harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi $35-36^{\circ}$, uning uzunligi 51-52 cm, balandligi 22,9 cm bo'lishi lozimligi aniqlandi.

6. Universal ildizmeva kovlagich 1,0-1,4 m/s ish tezliklarda kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi ish sifatini ta'minlashi uchun uning kovlash chuqurligi 20-22 cm, seksiyali lemexni gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagi $25-30^{\circ}$ bo'lishi lozimligi aniqlandi.

7. Ishlab chiqilgan universal ildizmeva kovlagich qo'llanilganda 1 gektar maydonga sarflanadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri (ekspluatatsion) xarajatlar 21 foizga, mehnat sarfi esa 24,4 foizga kamayadi. Bunda bitta kovlagichga yillik iqtisodiy samara 10 223 213,74 UZS ni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.08/2025.27.12.Т.13.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ
МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

ХАЛИКУЛОВ МУЗАФФАР АБДУРАЗЗОК УГЛИ

**РАЗРАБОТКА И ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ
УНИВЕРСАЛЬНОГО КОРНЕКЛУБНЕКОПАТЕЛЯ**

**05.07.01 – Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Гульбахор – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерство высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2024.3.PhD/T4943.

Диссертация выполнена в Научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу: www.qxmiti.uz и Информационном образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Норчаев Даврон Рустамович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Нуриев Карим Катибович
доктор технических наук, профессор

Куйчиев Одил Рахимович
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова

Защита диссертации состоится «22» 01 2026 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.08/2025.27.12.T.13.01 при Научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства (Адрес: 110800, Ташкентская область, Янгиюльский район, пос. Гульбаҳор, ул. Самаркандская, 41. Тел.: (+99855) 903-14-18, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института механизации сельского хозяйства (регистрационный номер 512). (Адрес: 110800, Ташкентская область, Янгиюльский район, пос. Гульбаҳор, ул. Самаркандская, 41. Тел.: (+99855) 903-14-18, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

Автореферат диссертации разослан «7» 01 2026 года.
(Протокол рассылки № 69 от «7» 01 2026 года).


A. Тухтакузиев

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

Б.П. Артиқбаев

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, PhD по техническим наукам, старший научный сотрудник.

Р.Р. Худайкулиев

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, кандидат технических наук, старший научный сотрудник.



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой практике выращивание и уборка корнеплодов является одной из важных отраслей сельскохозяйственного производства. Учитывая, что основная часть корнеплодов, выращиваемых «в настоящее время в мире на площади 30-35 млн. гектаров», приходится на долю малых фермерских хозяйств¹, разработка компактных копателей с энерго- и ресурсосберегающими рабочими органами для высокоэффективной уборки корнеплодов является одной из актуальных и необходимых задач. В этом направлении особое внимание уделяется созданию копателей с универсальными и ресурсосберегающими рабочими органами, способными убирать урожай различных корнеплодов с минимальными затратами энергии.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на повышение эффективности процесса выкапывания корнеплодов, при этом наряду с экономией энергии и ресурсов разрабатываются универсальные корnekопатели, обеспечивающие полное и бережное извлечение различных видов корнеплодов из почвы. В связи с этим проведение исследований по созданию универсальных и компактных копателей, обеспечивающих энерго- и ресурсосбережение с целью механизации процесса выкапывания различных видов корнеплодов, выращиваемых в нашей Республике, и сокращения ручного труда, имеет народнохозяйственное значение. В этом направлении, в частности, проведение целевых научно-исследовательских работ, направленных на разработку научно-технических основ обеспечения энерго- и ресурсосбережения при выкапывании различных корнеплодов, является одной из актуальных задач.

